

Nutq rivojlantirishning samarali metodlari va usullari

Usmonov Aslam Qarshiboyevich, o'qituvchi,

Usmonova Umida Baxtiyorovna, o'qituvchi.

Jizzax davlat pedagogika instituti.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bolaning psixik taraqqiyotini ta'minlovchi omillarni turli xil metodlar asosida hayotga tadbiq etish ko'nikmasini shakllantirish haqida so'z yuritilgan.

Uzluksiz ta'limning dastlabki bo'g'inini maktabgacha ta'lim tashkil etadi va bu bosqich keyingi ta'lim turlariga bola ongiga dastlabki bilimlarni beruvchi "fundament" vazifasini bajaradi. "Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrida olar ekan" kabi fikrlar ham shundan dalolat berib turibdi. Bola ruhiy kamolotining ko'p jihatlari nutq bilan bog'liq ravishda rivojlanadi. Chunki, bola muloqotga kirishishi ya'ni tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan muloqotlari jarayonida juda ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ladi va o'zining ruhiyatini keyingi rivojlanish bosqichiga ko'tarib boradi. Shuning uchun, bola hayotining dastlabki birinchi oyidan tarbiya faqat uni parvarish qilish bilan chegaralanmasligi kerak. Bolaning ilk yosh davridan eshitish qobiliyatini tarbiyalash, shuningdek, bolaning emotsional sohasi – jilmayish, kulish, va ovoz tonini uyg'otish lozim. Bularning hammasi birgalikda nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Asosan, bolalarning nutqiy rivojlanishi uning kattalar bilan individual muloqotida shakllanadi. Bola muloqotga nafaqat emotsional kirishadi, balki so'zlovchining yuzini ham ko'rib turishi kerak.

Bog'cha yoshidagi bolalar eng avvalo ko'rgazmali ifodalangan yoki ularni faoliyatlarga jalb etadigan predmetlar, hodisalar, sifatlar, xususiyatlar, munosabatlarning nomlanishini o'zlashtiradi. Buni bola tafakkurining ko'rgazmali-

harakat va ko'rgazmali-obrazli xarakterda ekanligi bilan tushimtirish mumkin. Shu tufayli ham, bog'cha yoshidagi bolalar lug'atida abstrakt (mavhum) tushunchalar deyarli uchramaydi. Bolalar nutqidagi bu hususiyatni ham mashg'ulotlar jarayonida hisobga olish zarur. Bolalarning nutqlari kattalarning nutqlaridan keskin farq qilinadi: Masalan: "r" o'rniga "l" yoki "y", "sh" o'rniga "s" tovushlarini ishlatishlari kuzatiladi. Nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun pedagogik mahorat alohida ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda dastlabki ma'naviy-ahloqiy tushunchalarni shakllantirish bolaning dastlabki rivojlanish bosqichlaridayoq amalga oshirilishi lozim bo'lgan pedagogik talablardan biri bo'lsa, ma'naviy-sifatlar: mehribonlik, to'g'rilik, vatanparvarlik, insonparvarlik, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, milliy qadriyatlarga hurmat, milliy g'urur kabi va ahloq-odobga oid sifatlar: ota-onaga hurmat, salomlashish odobi, kiyinish va ovqatlanish odobi, mehnatsevarlik, uyda va jamoat joylarda o'zini tutish kabi fazilatlarni tarbiyalash jarayoni ham bolalarda nutq zahirasining yetarlicha rivojlanishini talab etadi.

Maktabgacha ta'lim mazmunini tashkil etishda bolalar nutqini rivojlantiruvchi noan'anaviy usullardan foydalanish; ularda mashg'ulotlarga qiziqishni yanada orttirish uchun har-xil integrasiyalashgan xususiyatga ega bo'lgan ko'rgazmalardan foydalanish; maktabgacha yoshdagi bolalarga mashg'ulotlarni tashkil etishda doimo bolalarning tafakkur xususiyatini(ko'rgazmali-obrazli, ko'rgazmali-harakatli, emotsonal) hisobga olish; ta'lim jarayoni bola yoshiga mos bo'lishi yoki imkoniyatlarini hisobga olgan holda metodlarni tanlash bilan bog'liq bo'lishi; bolalarga yondashuvda logoped, difektolog, psixolog tarbiyachi, ota-onalar o'zaro hamkorlikda ish olib borishlari maqsadga muvofiqdir.

Go'dak ijtimoiy hayotga kirib kelishi bilan uning nutqi ham ijtimoiylashib boradi. Chunki bola tug'ilganidan boshlab muayyan ijtimoiy muhit ta'sirida tarbiya topadi. Turli muloqot vaziyatlarida etakchi o'rinni bola tomonidan kattalarning aqliy xususiyat va qiziqishlariga bo'lgan taqlidiy xatti-harakatlar tashkil etadi. Bunda so'z nutqiy muloqotning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Bolaning

ijtimoiy muhitni bilishga bo‘lgan qiziqishlarini qondirish uning atrof-muhit bilan yanada kengroq tanishishiga imkon beradi. Tevarak-atrof bilan tanishuv jarayonida bola undagi narsa-buyum nomlari va harakat-holatni ifodalovchi so‘zlarni o‘zlashtirib boradi. Bola tomonidan nutqiy funksiyalarning o‘zlashtirilishi jarayoni uning maktabgacha yosh davrida **uch bosqichda** amalga oshadi. **Birinchi bosqich** (tug‘ilganidan boshlab 9 oylik davrigacha)da go‘dak atrofidagi kattalarning nutqini tushunmaydi va o‘zi ham so‘zlay olmaydi. Biroq bu bosqichda kelajakda shakllanadigan nutqni o‘zlashtirishga zamin hozirlanadi. Tadqiqotlarda mazkur davr noverbal bosqich deb ataladi. **Ikkinchi bosqich** (9 oydan 3 yoshgacha) - nutqning shakllanish bosqichi sanaladi. Bu davrda bola kattalar tomonidan qo‘llanadigan oddiy, sodda shakldagi nutqiy qurilmzlarni tushunishga harakat qiladi, o‘zi ham dastlabki so‘zlarni talaffuz qila boshlaydi. **Uchinchi bosqich** 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda bola kundalik hayotda faol qo‘llanadigan nutq birliklarini to‘liq o‘zlashtiradi va ulardan atrofidagilar bilan muloqot jarayonida keng foydalanadi. Bu bosqich nutqiy muloqotning rivojlanish bosqichi hisoblanadi¹.

Bola tevarak-atrofdan kuzatilgan narsa-buyum hamda voqea-hodisalar haqidagi ma'lumotlarni o‘yin orqali o‘zlashtirib, har xil harakatlarni bajaradi, ko‘rgan-bilganlarini o‘zicha talqin qilishi natijasida ifodalanayotgan hodisalarning mazmun-mohiyatini yaxshiroq tushunib olishga intiladi. V.V. Dementev bu boradagi tadqiqotida maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlarini quyidagi tiplarga ajratadi:

1. **Kommunikativ o‘yinlar**. Bu tipdagi o‘yinlar tilga bog‘liq yoki bog‘liq emasligiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Ular o‘rtasidagi tafovut shundan iboratki, til bilan bog‘liq kommunikativ o‘yin bolaga ijodiy qobiliyatini erkin holda namoyon etish imkonini beradi. Tilga bog‘liq bo‘lmagan o‘yin esa uning faoliyatini muayyan qoidalar bilan cheklab qo‘yadi. Bir necha qoidalarni o‘z ichiga oluvchi

¹ Сайидирақимова Н.С. Болалар нутқининг фонетик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 2000. - № 2. - Б. 75-78; Болалар нутқининг тил онтогенезини ўрганишдаги ахамияти // История, культура и экономика юга Киргизистана. Ош, 2000. - Т.2. - Б. 73-76; Болалар нутқининг тилшуносликда ўрганилиш тарихи // Тил ва адабиёт таълими. - Тошкент, 2002. - № 4. - Б. 21-23; Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. - Тошкент, 2004. - 126 б.

kommunikativ o‘yinlar musobaqa tarzida o‘tkaziladi. Odatda, muayyan qoidalar asosida amalga oshiriladigan o‘yin jarayoni tartibli kechadi.

2. **Nokommunikativ o‘yinlar.** Bunday o‘yinlarda qoidalar mavjud bo‘lmaydi.

Ba‘zan bolalarning tilga bog‘liq bo‘lmagan kommunikativ o‘yin faoliyatida ham spetsifik xususiyatlar yuzaga chiqadi. Ular bolaning o‘yinga nom berishi jarayonida yaqqol aks etadi: Alisher Farmonov: (4 yoshu 10 oy) o‘rtog‘iga: **Drsh-drsh o‘yniyimizmi?** - deb murojaat qiladi. Boladan «Drsh-drsh» qanday o‘yin ekanligi so‘ralganda, u mazkur faoliyat turining boshni boshga urish orqali amalga oshirilishini harakat yordamida tushuntirmoqchi bo‘ladi.

Bola kattalarning turmush tarzi, his-tuyg‘ulari, o‘zaro muomala va muloqotga kirishish xususiyatlari, o‘ziga va o‘zgalarga, atrof-muhitga munosabatini yaqqol voqelik sifatida aks etgirish maqsadida turli xil o‘yinchoqlar va ularning vazifasini o‘tovchi narsa-buyumlardan keng foydalanadi. U mustaqil ravishda o‘ynayotganda nutqiy faoliyat orqali muloqotga kirishish xususiyatini yuzaga chiqaradi. Muxlisa Mullajonova (3 yoshu 9 oy) o‘yin chog‘ida doimo onasi tomonidan o‘ziga nisbatan aytilgan so‘zlar bilan o‘yinchoq quyunchasiga, qo‘g‘irchoqlariga murojaat qiladi. Hilolaxon Erkinova (5 yoshu 8 oy) esa qish faslida bog‘chaga ketishdan oldin uyda yasatilgan archaning oldiga borib, **Xayr, archa** - deb u bilan xayrlashadi. Sarvarbek Umarov (3 yoshu 10 oy) nutqida ham yuqoridagi kabi misollarni ko‘plab kuzatish mumkin. U uxlashdan oldin «Mikki Maus» o‘yinchog‘iga: **Xayr, yaxshi uxab tuy** - deb xayrli tun tilaydi.

Albatta, bunday holatlarda bola jismlarga ijtimoiy mazmun ifoda etuvchi voqelik sifatida yondashadi. Ushbu fikrga dalil sifatida Hayrulla Hamdamov (3 yoshu 10 oy) nutqida uchragan quyidagi misolni keltiramiz. U o‘yin jarayonida velosiped minib yurib, oyog‘i bir oz toliqib qolganidan so‘ng shunday deydi: **Velsapetim charchab ketti, garajga oborib ko‘yaman-da, charchab bo‘sa haydab ketaman².**

² Лементьев Р. Р. Прямая и косвенная коммуникация в онтогенезе. БКрУ/ууццц^Лтй.брЪ.ш/ггатгаакоп/сбЛ^сотецсе.Бт!! - 31.05.2004.

Bolalar nutqiy faoliyatining rivojlanishida leksik o'yinlarning ahamiyati kattadir. Chunki bunday o'yinlar bola nutqining o'sishi, fikrlash qobiliyatining rivojlanishi, bilim saviyasining kengayishi va xotirasining yanada mustahqamlanishiga yordam beradi. Ular intellektual-psixologik o'yin turi sifatida o'quvchilar tomonidan ona tili lug'at tizimining o'zlashtirilishi jarayoni bilan bog'liq masalalarni yoritishda muhim o'rin tutadi.

Bolalar nutqiga oid leksik-semantik xususiyatlar 7 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan to'qqiz nafar o'quvchi o'rtasida o'tkazilgan «**Men nimani o'yladim?**» nomli topishmoq tarzidagi intellektual- psixologik o'yin jarayonida yaqqol namoyon bo'ldi³. Tajribada Jizzax shahridagi ijtimoiy fanlarga yo'naltirilgan maxsus maktab, «Humo» bog'cha-maktabining 1-4-sinf o'quvchilari ishtirok etdi.

Sinov jarayoni quyidagi tartibda amalga oshirildi: dastlab bolalarga o'yin ishtirokchilaridan biri biror narsani o'ylab, uning nomini emas, balki ta'rifini og'zaki nutq orqali adabiy tilda ifodalashi, boshqa ishtirokchilar esa ta'riflangan so'zni topib, yozma ravishda qayd etib borishlari kerakligi aytili. Shundan so'ng javoblar aynan takrorlanmasligi uchun har bir sinaluvchiga o'zi ta'riflamoqchi bo'lgan so'zni boshqa ishtirokchilarga ko'rsatmagan holda yozib borish vazifasi topshirildi. Mazkur leksik o'yinning asosiy maqsadi bolalar tomonidan muayyan tushunchani ifodalovchi leksemaga berilgan ta'rif orqali ularning nutqni idrok etish darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, ushbu tajriba usuli o'quvchilar nafaol lug'atining faollashuvini ta'minlaydi, shu bilan birga, bolalarda ziyraklik, sinchkovlik sifatleri va mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi. O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liq muhim masalalardan biri ularning lisoniy ongida mantiqiy tafakkurning asosiy birlikleri haqidagi tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. Chunki bolaning tafakkurida shakllangan tushuncha narsa-hodisalarga oid umumiy va o'ziga xos belgilarni aks ettiradi. Ijodiy yondashuv asosida o'tkazilgan ushbu o'yin shartiga ko'ra, barcha o'quvchilar tomonidan berilgan ta'riflar ularning og'zaki nutqida adabiy til me'yorlariga muvofiq holda ifodalangan.

³ Синалувчилар нуткида ифодаланган таърифлар диктафонга ёзиб олинган.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish ularda nutq jarayonini rivojlantirishga uzviy bog'liq bo'lib, tafakkur nutqning mahsuli ekanligini hisobga olish zarur.

Adabiyotlar:

1. .Бобоева Д.Р Теварак-атрофни ўрганишда мактабгача ёшдаги болаларнинг боғланишли нутқини ривожлантириш: Пед.фанлари номзоди... дисс.автореф.- Тошкент, 2001.
2. Сайтлин С.Н Язык ребенка. Лингвистика детской речи. М.: Владос, 2000.- 240.